

ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK QARASHLARIDA NOMODDIY BORLIQ TALQINI

Norov Toji Omonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Falsafa” kafedrası professori, Falsafa fanlari doktori (DSc),

E-mail.: tajonorov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning falsafiy merosidagi nomoddiy borliq haqidagi diniy va ma'rifiy-falsafiy qarashlari tahlil qilingan. Xususan, falsafaning asosiy muammosi nomoddiy olamning, ruh, jon, ong, ko'ngil, xotira, o't, havo, va boshqa manbalarini mutafakkir talqinidagi xususiyatlari bayon qilindi.

Kalit so'zlar: nomoddiy borliq, ruhiy olam, ruh, jon, ong, ko'ngil, xotira, o't, havo.

THE ONTOLOGICAL INTERPRETATION OF IMMATERIAL BEING IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF ALISHER NAVOI

Abstract

This article analyzes the religious and enlightenment-philosophical views of the great thinker Alisher Navoi on the intangible being in the philosophical heritage. In particular, the main problem of philosophy is the description of the properties of the intangible world, the soul, mind, heart, memory, fire, air, and other sources in the interpretation of the thinker

Keywords: intangible being, spiritual world, spirit, soul, mind, heart, memory, fire, air.

ОНТОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО БЫТИЯ В ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДАХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

В данной статье анализируются религиозные и просветительно-философские взгляды великого мыслителя Алишера Навои на проблему

нематериального бытия в его философском наследии. В частности, рассматриваются особенности интерпретации мыслителем таких ключевых категорий, как нематериальный мир, дух, душа, сознание, сердце (как духовный центр), память, огонь, воздух и другие сущности.

Ключевые слова: нематериальное бытие, духовный мир, дух, душа, сознание, сердце, память, огонь, воздух

Kirish (Introduction). Ushbu maqolada falsafa fanining asosiy mavzularidan bo‘lgan borliq olamining asosi substansiyasi, asosiy mohiyati, borliqning, olamning ibtidosi nima, olam va borliq qanday yaralgan, u qanday unsurlardan tashkil topgan, nega olamning bir butunligini tashkil qilgan unsurlarning ba'zilar mavjud, ya'ni vujudga ega, ayrimlarida esa unday xususiyatlarni biz ko‘rmaymiz degan savollarga javob izlangan.

Alisher Navoiy falsafasida nomoddiy borliq bilan bog‘liq tushunchalar “hastinestnamoy” – ya'ni, o‘zi boru, lekin namoyon bo‘lmaydigan olam tarzida qo‘llangan. Jon va ruh masalasi badiiy, ayrim o‘rinlarda tamsiliy-majoziy uslubda talqin qilingan. Shuningdek, nomoddiy olamni – malakut olami, ruhoniyyat, ong, jon, ruh, tafakkur, aql, dark, ya'ni idrok, xotiro, ishq, ilm, bilim, ko‘ngil olami, sabr, toqat kabi istiloh va tushunchalar tarzida ifodalangan.

Navoiy dahosi doimo bizga yo‘lchi yulduz bo‘lib qoladi. Shavkat Mirziyoyev 2025-yilni Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb e‘lon qilishni taklif qildi. Bu yil doirasida “Hazrat Navoiyni anglash — o‘zligimizni anglash” mavzusida prezident sovg‘asi uchun tanlov tashkil etiladi. Quriladigan Yangi O‘zbekiston bog‘ida Alisher Navoiyga bag‘ishlab memorial muzey ochiladi. Bu kabi ishlar mutafakkir merosining tadqiq va targ‘ib qilish vazifalarini o‘ta muhimligini anglatadi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Falsafaning, xususan ontologiyaning eng nozik va bahsli mavzularidan biri – bu nomoddiy borliq masalasidir. Bu mavzu markazida olamni, borliqni butunligi tashkil etuvchi, lekin, ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlash mumkin bo‘lmaydigan o‘t, havo, jon, ruh, xotira, ma‘naviyat olami kabi nomoddiy olam muammosi turadi. Avvalo olamdagi barcha mavjudotlarning shakl-shamoyili ya'ni formasi masalasi

ham bahsli masala ekanligini aytib o'tish kerak. Zero mavjudot so'zining o'zi o'zbek tiliga arab tilidagi "vujud" so'zi o'zagi asosida kirib kelgan bo'lib, tana-tiynat ma'noni anglatadi. Masalan, rus tilida bu so'z telo, ya'ni ashyolarni va inson borlig'i nazarda tutilsa, insonni tanasini, vujudini anglatadi. Agar jon va ruh tushunchasini ilohiyot (panteistik) pozitsiyadan qarasak, u Olloh tomonidan sirli mo'jiza qilib yaratilgan nomoddiy olamdir. Uning muammoligi shunda. Vaholanki, bu muammo insoniyat yaralibdiki, u o'zini aql-idrokli mavjudot sifatida jon va ruh bilan bog'liq sirini bilishga intilib keladi. Bu savol ilgari qanday turgan bo'lsa hozirgacha shu zaylda ochiq turipti. Bu masalani turli davrlarda, turli mintaqa falsafa maktablarida bu savolga turlicha javob izlangan hamda turlicha izohlab kelganlar. Shu qarashlar va izohlar asosida nazariya va ta'limotlar yaratilgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Navoiy asarlaridagi borliq muammolari tahlilida nomoddiy unsurlar "hastinestnamoy", ya'ni o'zi boru, lekin, namoyon emas, ko'rinmaydi, yana "nestu hastnamoy" yoki o'zi yo'qqa o'xshaydi-yu lekin bor tarzida qo'llaniladi. Shuningdek, asrori g'ayb, malakut olami, ko'ngil, ruh, insonning sezgi organlari xususida ham o'ziga xos tarzda qarashlar bor.

Navoiy, o'zigacha bo'lgan falsafiy ta'limotlar tarixini chuqur, juda chuqur o'rgangan. Bularga qadimgi tamaddun markazlari hisoblangan, qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Old Osiyo, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunon falsafasi namoyondalari merosi nazarda tutiladi. Xususan, tasavvuf shayxlari, tariqat soliklari ijodiy merosini chuqur tadqiq qilgan olimdir. Tabiiyki, bu mutafakkirlar merosida olam, uning yaralishi, mavjudlik shakli, mazmuni, borliq ibtidosi, intihosi borliqning xususiyatlari muammolari muhokama qilingan va turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Mutafakkir "Nasoyim ul-muhabbat" asarining, "Hujjat ul-islom Muhammad b. Muhammad G'azzoliy Tusiy q. s." maqolasida mashhur mutasavvuf olim Muhammad G'azzoliy asarlari tahlilida uning falsafiy qarashlari, xususan, borliq falsafasiga oid fikrlarini keltiradi. Jumladan, moddiy va nomoddiy borliq tafsilotiga qaratilgan quyidagi parchani keltiradi.

"Ruh hastii nestnamoydurki, kishi anga yo'l topmas va sultoni qohir va mutasarraf uldur. Qolib aning asiru bechorasidir. Har ne ko'rsalar qolibdin ko'rarlar

va qolib andin bexabar; barcha olamg'a olam qayyumi bila ushbu misoldurki, olam qayyumi "hasti nestnamoydur"ki olam zarrotidin hech zarrag'a vujud va qivom o'zi bila emas...

Bu maiyyatni fahm qila olmag'ay va qayyumiyat maiyyati to'rtinchi qismdir balki maiyyat haqiqat yuzidin budur va bu dag'i hasti nestnamoydur. Alarki, bu maiyyatni bilmagaylar, qayyumni tilagaylar va topmagaylar..."

Bu matnda ko'rinib turganidek inson ruhi, uning nomoddiyligi xususida bormoqda.

Girdborki, sofi havoda yerdin qo'par... Kishi anga boqsa sog'inurki, tufrog' o'zin chirmaydur va tebranadur va andog' emasdur. Balki ul tufroqdin har zarra bila havodurki, aning muharrikidur. Ammo havoni ko'rsa bo'lmas va tufroqni ko'rsa bo'lur. Bas, tufroq muharriklig'da (harakatda, ya'ni havoning kuchi(shiddati) bilan muallaq harakatda bo'lishi) nesti hastnamoydur va havo hasti nestnamoy. Tufroqqa harakatda musaxxarlig'din o'zga yo'qdur havo ilkida. Va saltanat borcha havog'adur va havoning saltanati nopaydo" [1: 250-251]

Bu matn mazmuni, kuchli to'fon paytida tuproqni havoga uchib, ko'tarilib, havoda ma'lum shakl paydo qilishi, tuproq moddiy ashyo, u o'zicha havoga ko'tarilishi mumkin emas, u hova shiddati, ya'ni shamol shiddati bilan havoga ko'tarilgani, lekin shamolni asosi havo, nomoddiy borliq – hasti nestnamoy ekanligi aytilmoqda. Havoning saltanati nopaydo deb xulosa qilingan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Alisher Navoiy falsafasida nomoddiy borliq masalasi badiiy, ayrim o'rinlarda tamsiliy-majoziy uslubda talqin qilingan.

"Lison ut-tayr"da, olam haqiqiy olam emas, haqiqiy olamning ya'ni Ollohning soyasi, tajalliysi ekanligi xususida bir nechta hikoyalarda majoziy-falsafiy tarzda insho qilingan.

"...Agar har bir kishida aql mavjud bo'lsa, shuni bilgilki, azaldan to abad bu olamdagi mavjud barcha narsalar borliqqa ega emas, faqat shakl ko'rinishiga ega. Qudratli Haqdan boshqa hamma narsa foniy - o'tkinchidir, faqat yolg'iz Ugina mutlaq boqiydir. Unga vujud tartibi mahkamlangan bo'lib, borliq rasmi inkor

etilmasdan ma'qullangandir. Haqdan o'zga har qanday zot, faraz qilaylik, obi hayot ichgan bo'lsa ham, bu olamda mutlaq o'tkinchi hisoblanadi", deyilgan[2: 99-100].

Bu yerdagi falsafiy fikrlar, Aflotunning soyalar olami falsafasiga o'xshasada, lekin bu yerda aniq olamning asosi, uning boqiy manbai Olloh, boshqa barcha ashyolar o'tkinchi, Ollohning nuri jamoli, tajalliysi ekanligi aytilgan.

"Lison ut-tayr"ning 75 maqolotida ham: "... Olamdagi barcha qushlarning shakli, bilgilki, Uning hikmatga to'la soyasidan iboratdir... Chunki haqqa cho'mib, u bilan bir butunlikni tashkil qilganini haqdan bo'lak yana nima deyish mumkin? Ya'ni uni haqqa qorishib ketgan deb aytish kerak!

Sen o'zingning kimga soya ekanligingni va o'zingning tub negizingga yaqin ekanligingni fahmlab olding. Agar Simurg' o'z soyasini istab, jilva etmaganda, soya egasi bo'lmas edi. Bordi-yu Simurg' o'zini yashirin tutishni xohlasa, uning soyasi hech qachon ayon bo'lmasdi. Zeroki, soyaning oshkor bo'lmog'i soya beruvchining vujudi haqida dalil bo'la oladi. Sening ko'zlaring Simurg'ni ko'ra oluvchi bo'lmaganida edi, ko'ngling ko'zgudek munavvar bo'lmas edi. Bunday ko'zga ega bo'lmasdan turib, uning yuzini ko'rish mumkin emas, bundan boshqacha bo'lmaydi. U o'z husniga oshiq bo'lishlarini istab quyosh kabi bir ko'zgu paydo qildi" [2: 33-34].

76 maqolada: "...Sen bu ko'zguni ko'ngil deb xayol qilgin, unda o'sha jamol o'z aksini ko'rsatdi"[2: 34-35] deyilgan.

161 maqolada: Ma'no ahllari e'tibor qiluvchi ushbu o'n sakkiz ming olam ichida nimaiki narsa bo'lsa, ular shakl jihatidangina mavjud bo'lib, shaklda ko'rinuvchanlik xususiyatiga egadir. Yer sathi uzra yuzlab ajoyib shakllar mavjud, har bir shaklning o'zi yana rang-barang tovlanishlarga ega. Faraz qil: tevarak-atrofdagi dengizlar yoki ma'dan konlar, yoki dasht-sahrolar, yoki gulshanlar, yoki to'rg'ay va bulbullarni o'ziga rom etib, ularni halok qila oladigan darajadagi rango-rang nafis gul va lolalar, turli iqlimlar va mamlakatlar, daryolar, buloqlar va tog'lar hamda ularni o'rab olgan o't va havo, balki o't va havodan boshqa yana bir qancha narsalar mavjud [2: 34-35].

Jon va ruh nomoddiy sirli olam ekan, jonning borligini aniq anglatib turuvchi yana bir nomoddiy xilqat bu dard yoki og'riqdir. Agar jon kabi og'riqni ko'rib yoki

ushlab bo'lganda edi, ehtimol tirik mavjudodda bu illat bo'lmas edi. Zero, olam moddiy va nomoddiy olam bilan butun va mukammal deb xulosa qilishga asos ham shunda. Odatda, kasallikni, dardni jon og'rig'i deyish rasm. Jonning o'zi maxfiy bo'lgani kabi uning og'rig'i ham maxfiy. Uning davosi ham qadimdan 2 xil usulda amalga oshirilgan. Uning ham biri moddiylikka yana biri nomoddiylikka asoslangan. Ya'ni birinchisi insonga ruhiy ta'sir etish orqali uni dardlarini ma'lum vaqtga yoki mutlaqo, qisman yoki butunlay bartaraf bo'lishga erishilgan bo'lsa. Ikkinchi moddiy usuli kimyoviy, ya'ni turli kimyoviy vositalar bilan dardni qisman yoki butunlay bartaraf qilish. Uning favqulodda usuli esa jarrohlik usulidir.

Navoiy ijodidagi asosiy mavzulardan biri esa jon va dard masalasi desak xato qilmaymiz.

Navoiyda farishtalar – malakut olami, g'ayb, asrori g'ayb, insu-jins, shayton, xizr kabi islom e'tiqodi doirasida nomoddiy borliq uning ontologik falsafasining asosini tashkil etadi.

Nazarimizda, olov – nomoddiy borliq, uni jonga o'xshatish mumkin. Uning xususiyati shundaki u jondan farqli ravishda faqat yonayotganda ko'z bilan ko'riladi, lekin uning jismi yo'q, o'zi sobit emas. Tirik va butun jismlar vujudini yoqib bitiradi va o'zi ham yo'qqa aylanadi. Keyin uni ko'rmaymiz. Unda jism ham vazn ham yo'q. Qizig'i, uning faoliyati natijasi o'laroq yonib bitgan narsalardan shu miqdorga mutanosib (to'g'rirog'i nomutanosib) kul qoladi. Bu jismlarning xususiyatiga bog'liq. Vaholanki, olov bilan bog'liq masalalar to'g'ri ma'noda ham mazoziy ma'noda ham ko'p o'rinlarda tahlil qilinadi. Masalan ishq o'ti haqida.

Lekin, asrofizikada ko'rish mumkinu, ushlab bo'lmaydigan, ko'rishda nisbiy, nomoddiy borliqdan yana biri yorug'likning yuzaga bosimi isbotlangan. Lekin bu olovga nisbatan qaydarajada mos, bunisi aniq emas.

Navoiy boshqa mavjudod kabi odam ham to'rt unsur dan yaralgan bo'lib bu unsurlarning ikkitasi – havo va o't yuqori sifatli, qolgan ikkitasi – tuproq va suv quyi sifatli deb ta'riflagan[3:91].

Ikki anga gavhari ulviy (oliy)najod,

Ikki anga javhari sifliy (past)nihod [3:93].

Shuningdek, U insonning tanasi vujudi moddiylik olami bo'lib, uning ko'ngli va ruhiyati malakut olamiga doxil degan ta'rif beradi. Bu xususda “Hayratul-abror” da alohida bob ajratilgan bo'lib, unda Qur'ondagi “fazkuruni mazkurukum” ya'ni meni esga olinlar, yodlanglar, men ham sizni yodga olaman”[3:90-96], degan muqaddas kalom bilan asoslangan bo'lib, ko'ngil va xotira Ollohning insonga in'omi sifatida talqin qilingan [3:90].

Bizning nazarimizda ham, olamni, borliqni tashkil qilgan to'rt unurning 2 tasi moddiy 2 tasi nomoddiy hisoblanadi.

Nazarimizda bu yerdagi tavsifda, nafaqat havo bilan olovni yuqorida bo'lishi va yuqoriga intilish yuqori sifat deb, suv va tuproqni pastga tushgani tufayli past daraja deb baholangan, balki, umuman olamni tuzilishidagi ahamiyati va nestnamoyligi ya'ni, nomoddiy olamga daxdor bo'lganligi uchun ham shunday baholangan.

Nomoddiy – havo va o't. Agar bu unsurlarda tarkib, tuzilish, kimyoviy tahlilda aniqlangan bo'lsada ularni ko'zga ko'rimasligi, qo'l bilan ushlab bo'lmasligini hisobga olib shartli “nomoddiy” unsurlar deyish to'g'riroq bo'ladi deb uylaymiz.

Nomoddiy va moddiy olam aql hayratiga sabab bo'lgani sababli Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”da:

Seni topmoq base mushkuldurur, topmaslik osonkim,

Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo [4:29].

Odam borliqni idrok etishda asosiy vosita bu sezgilaridir.

Lekin, odamzod sezgilari qodir bo'lmagan signallarni qadimdan, fasllar o'zgarishi havo o'zgarishi kabi tabiat jarayonlarini, osmondagi o'zgarishlar, yulduzlar, bulutlar hayvonlar, o'simliklar, hashoralar, qurt-qumusqalarni kuzatish orqali bilvosita foydalangan. Masalan yerda: itlar va boshqa hayvonlardagi favqulodda sezgirlik qobiliyatlaridan hid bilish, hid ajratish, mushuklar, qushlar, hashoratlarni harakatlari orqali aniqlab olishgan. Yo'qolgan odamlar hayvonlarni, agar o'lgan bo'lsa, o'laksaxo'r qushlarni parvozi va o'lgan tana turgan joyga tashlanishidan aniqlash azaldan to hozirgacha qo'llab kelinmoqda. Keyinchalik bunday funktsiyalarni inson aql idroki mevasi bo'lgan asbob –uskunalar vositasida aniqlanadigan bo'ldi. Bu o'rinda, insoniyat asrlar, mingyillar davomida to'plagan

tajribalarini o'rni beqiyos. Fasllar almashinishi, ob-havoni ehtimoliy o'zgarishi koinotdagi holatga qarab bilish tajribalari va hakazo.

Zero, bular hammasi yana bir nomoddiy borliq, inson aql-zakovati, ruhiyati, ular vositasida to'plangan bilim va tajribalari kabi yana bir nomoddiy borliq mo''jizalaridir. Xotira, ko'ngil, aql-zakovat, tajriba, bilim kabi insoniy fazilatlarni ham moddiy borliq deya olmaymiz.

Hozir, ob-havo o'zgarishlari, dengiz va okeanlardagi o'zgarishlar, zilzilalar kabi hodisalarni o'ta sezgir ul'ratovush apparatlar, radioto'lqinli apparatlar radarlar vositasida aniqlash oddiy hol bo'lib qoldi.

Nomoddiy olamning Navoiy talqinidagi eng muhim asoslaridan biri ko'ngildir. Gap albatta inson ko'ngli haqida boradi. Zero mantiqan qaralsa falsafaning asosiy manbai va rivojlantiruvchi javhari, qudrati ham aslida shu ko'ngildir.

Navoiy, "Ruh ul quds"da: (U inson) mazhari kull (barcha insonlar o'zida zohir qiluvchi vujud)ga aylandi, so'ngra Alloh yaratgan narsalar ichida unga olami kubro (katta olam) deb laqab (nom) berildi, deydi [5:211]. Ya'ni bu yerda, Navoiy insonni o'zi va ko'nglini, ruhiyati, ongida, tafakkurida butun olam haqida keng tasavvur va fikrat olamini olamu kubro deb ta'riflagan.

Kupchillik tasavvufshunoslar va umuman falsafa namoyondalari olamni katta olamga - olami kubroga va kichik olam- olami sug'roga bo'lganlar. Bir talqinga ko'ra, olami kubro ya'ni katta olam borliqni, olamni asl ibtidosi, moyasi, javhari, mohiyati hisoblangan zod – Olloh deb qarashadi. Olami sug'ro esa Ollohni qudrati va amri bilan yaratilgan barcha boshqa qolgan mavjudodlar. Lekin, boshqa bir guruh faylasuflar aynan olami kubro bu – inson ko'nglidir deb tahlil qilishadi.

Buning mazmuni, inson har nimaniki ko'radi, xotirasida saqlaydi, uni fikrlaydi, tafakkurida ayrim ixtirolar g'oyasini shakllantiradi, oqibatlarni amalga oshiradi. Yangi olam, yangi ko'rinish va mazmundagi Navoiy ta'biri bilan aytganda araziya ya'ni ikkilamchi ashyolar yaratadi. Boshqacha oddiy xalqona ta'bir bilan aytganda, odamni ko'ngil, xayolot olamida dunyo jo bo'ladi va yana olamda yo'q fikr va g'oyalar ham bor. Ana shu ma'noda, ikkinchi misradagi falsafa mazmuni aynan – kungilni "laqabi" bizni nazarimizda sinonimi – olami kubrodir.

Xususan, ontologik masalalar ham. Ko'ngil masalasini "Hayratul-abror"da shunday deyiladi:

Solik ani arshi muallo dedi,

So'fi ani olami kubro dedi [3:90-96].

Bu yerdagi bayt mazmunida, dinni faqat e'tiqod tarzida qarovchi tasavvuf tarafdori – solik ko'ngil ishi "arshi muallo"dan ya'ni faqat Ollohdan deb qaragan bo'lsa, so'fiy ko'ngilni olami kubro deb baholaydi deyilmoqda.

Nomoddiy olam mo'jizalari hisoblangan – insondagi jon, ruh, ong, tafakkur, ishq, rashk, tabiatdagi, borliqdagi olov, havo qudrati va mo'jizasi vositasida moddiy olamdagi olamshumul o'zgarishlar qilinadi.

Yer qobig'ini shu mo'jizali unsurlar tashkil qiladi. Vaholanki ularning ikkalasi ham ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutib bo'lmaydi, lekin, aynan yerdagi tirik organizm va nabotot olamining mavjudligining manbaasi suv hisoblanadi.

Havoni ko'z bilan ko'rish mumkin emas, faqat u agar nafas olishimiz og'irlashganda his qilamiz. Navoiy ta'biri bilan aytganda u nesnamoydir, ya'ni namoyon bo'lmaydigan olam unsuridir.

Olimlar koinotni asosiy qismini vodorod tashkil etishini aytishadi. Lekin, bu bizni nazarimizda u asosan Yer atrofi va galaktikani (Quyosh tizimi) asosiy qismida. Fazoning, koinotning quyoshga yaqin qismini turli ion va geliy gazlari tashkil qiladi.

Olamdagi juda ko'p narsalar odam anglab yetmaydigan, nihon, pinhon qilib yaratilganligi ko'p o'rinlarda aytilgan. Xususan, "Xazoyin ul-maoniy"da jonni nihonligi ya'ni yashirinligi xususida,

Navoiyg'a jon oshkoru nihonsen,

Zihi el nihoni sanga oshkoro[4:10]

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Hozirgi paytda, nomoddiy olam deb atalgan olamga internet virtual tizimini kiritish mumkin. Bunga internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan, xabarlar, jahon moliya tizimida amalga oshirilayotgan operatsiyalar, amalga oshirilayotgan kommunikatsiyalar tizimini misol bo'ladi. To'g'ri, axborotlarni yetkazish qurilmalari, texnik jihozlar moddiy-materialistik asosda, lekin, ular orqali amalga oshirilayotgan amaliyotlar ko'lamini bilan solishtirganda bu qurilmalar arzimagan vosita bo'lib

qoladi. Ayniqsa yo'ldosh aloqalar orqali simsiz internet tizimlari faoliyati, texnik progressning isboti va nomoddiy borliq mo'jizasi deyish mumkin.

Jaloliddin rumiy "Masnavii ma'naviy" asarida, shu kabi Olamni va Odamni yaratgan Parvardigor javhari, ismlari, qudrati va mohiyatini anglash ham inson ruhi xususiyatlarini o'rganish va anglash bilan amalga oshadi [6:392].

G'ayb ilmi bilan bog'liq ilohiy talqin Navoiyning "Nosoyim ul-muhabbat"ida "Imomi A'zam" maqolasida ham aytib o'tilgan. Faqat ularni o'rinlari va bayon tarzi sal boshqacharoq [6:32].

Tasavvufshunos olim N. Komilovni fikricha: Tasavvufda ham aqliy bilish, aql qudrati tan olinadi. Biroq aqliy bilimlar, dalil bilan isbotlanishi mumkin bo'lgan bilimlarga yaraydi, g'ayb ilmini idrok etishga esa aql ojiz, deydi so'fiylar. G'ayb ilmi, Xudovand olamidagi behad-behudud ilmlarni so'fiy alohida hissiy-vajdiy tafakkur bilan, qalbga tushgan karomat nuri bilan anglab idrok etadi. Shu bois tasavvufda mukoshafa, kashfu karomat, hol-sukra tushunchalariga alohida e'tibor beriladi[7:34].

Nomoddiy borliq bilan muammolar oldida zamonaviy fan ham aniq javob bera olgani yo'q. Lekin, yaqinda AQShning Kaliforniya universiteti olimlari bir shov-shuvli xabar tarqatishdi. Unda aytilishicha, odam tanasidagi jonni vazni 22 grammni tashkil etarkan. Ya'ni, tiriklik paytida vazni o'lchangan odamni, uning joni uzilgandan keyingi vazni 22 grammga kamayganligi aytilmoqda. Bizni nazarimizda birinchidan, bu xabar, jon va ruh masalasidagi muammoni butunlay hal qilgani yo'q. Ikkinchidan, bu shunchaki sensatsiya ishqibozlarining shov-shuvi. Uchinchidan, jonni nomoddiy olam bo'lgan jon yoki ruhni vaznga ega ekanligi juda mavhum masala ekanligini ta'kidlash lozim. Umumiy xulosamiz shuki, ming va hatto million yillardan beri sirli mavzu muammo bo'lib, biz ham bu masalani yechimida ojizligimizni tan olib, Navoiycha an'ana va musulmoncha odob doirasida Vallohu a'lam deb qo'yamiz.

Bulardan xulosa shuki, bu xususiyat va yutuqlar insonning nomoddiy olami qudrati vositasida erishiladigan mo'jizakor faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 17 t. Nasoyim ul-muhabbat. T.: “Fan”, 2001. 250-251 betlar.
2. Navoiy Alisher. Lisonut-tayr. www.ziyouz.com kutubxonasi.161 maqola. 125 b.
3. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 7 t. Xamsa: Hayrat ul-abror . T.: “Fan”, 1991. 392 b.
4. Navoiy Alisher. Ruh ul-quds. 20 jildlik MAT. 20 jild. T.: “FAN” 2003. 211 b.
5. Navoiy. A. MAT: 20 tomlik. 1t. Badoeul-bidoya. T., “Fan”, 1987. 29 b.
6. Jaloliddin Rumi. Ma’naviy masnaviy. T., “Hidoyat” jurnali tahririyati. 2005. 392 b.
7. Komilov. N. Tasavvuf. ‘MOVAROUNAHR, ‘OZBEKISTOT NMIU, 2009. 448 b.